



Analysis of Sources Related to Amir Timur's Diplomacy

Ulugbek ABDULLAEV¹

Tashkent State University of Oriental Studies

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

05 October 2025

Keywords:

Amir Timur,
diplomacy,
foreign policy,
source studies,
Zafarnama,
Timur Tuzuklari,
Clavijo,
historiography.

ABSTRACT

This article examines the diplomatic activities of Amir Timur and provides an analysis of historical sources dedicated to this topic. The study encompasses Timur's foreign policy, his diplomatic relations, and the role of diplomacy in the governance of his state. The research draws upon the works of both Eastern and Western authors, including Nizam al-Din Shami, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Ibn Arabshah, Abdurrazzaq Samarkandi, Hafiz Abu, Ibn Hajar al-Asqalani, al-Maqrizi, Ibn al-Furuta, as well as Ruy González de Clavijo, Archbishop John, and Johann Schiltberger. Through these sources, the article reveals the distinctive features of Timur's diplomatic policy, his international authority, interactions with envoys, and strategies aimed at maintaining peace. The findings underscore the significance of diplomacy in ensuring the independence and stability of the state during Timur's era.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5-pp518-528>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Amir Temur diplomatiyasiga oid manbalar tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Amir Temur,
diplomatiya,
tashqi siyosat,
manbashunoslik,
Zafarnoma,
Temur tuzuklari,
Klavixo,
tarixshunoslik.

Ushbu maqolada Amir Temur diplomatik faoliyati va unga oid manbalar tahlili yoritilgan. Tadqiqotda Amir Temurning tashqi siyosati, diplomatik aloqalari hamda davlat boshqaruvidagi diplomatiyaning o'рни chuqur o'rganilgan. Maqolada Sharq va G'arb tarixchilari – Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro', Ibn Hajar al-Asqaloniy, al-Maqriziy, Ibn al-Furot, shuningdek Ruy Gonsales de Klavixo, Ioann, Yoxannes Shiltberger kabi mualliflarning asarlari tahlil qilingan. Manbalar orqali Amir Temurning diplomatik siyosati, xalqaro nufuzi, elchilar bilan munosabatlari va tinchlikni saqlashga qaratilgan

¹ Ph.D. in History, Associate Professor, Tashkent State University of Oriental Studies.

strategiyasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari Amir Temur davrida diplomatiyaning davlat mustaqilligi, xalqaro aloqalar va boshqaruv tizimidagi o'zni muhimligini ko'rsatadi.

Анализ источников, относящихся к дипломатии Амира Темура

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Амир Темур,
дипломатия,
внешняя политика,
источниковедение,
Зафарнаме,
Тимур-тюзуклари,
Клавиho,
историография.

В статье рассматриваются дипломатическая деятельность Амира Темура и анализ исторических источников, посвящённых этой теме. Исследование охватывает внешнюю политику Темура, его дипломатические связи и роль дипломатии в управлении государством. В работе анализируются труды восточных и западных авторов – Низамаддина Шамии, Шарафаддина Али Йазди, Ибн Арабшаха, Абдурраззака Самарканди, Хафиза Аbru, Ибн Хаджара аль-Аскаляни, аль-Макризи, Ибн аль-Фурота, а также Руи (Руя) Гонсалеса де Клавиho, архиепископа Иоанна и Иоганна Шильтбергера. Через эти источники раскрываются особенности дипломатической политики Темура, его международный авторитет, взаимоотношения с послами и стратегия, направленная на поддержание мира. Результаты исследования показывают значимость дипломатии для обеспечения независимости и устойчивости государства эпохи Темура.

Amir Temur tarixi, davlatchiligi va tashqi siyosati ilmiy tadqiqotlar va tarixshunoslikda uzoq yillar davomida diqqat markazida bo'lib kelgan. Temur faoliyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq va Yevropa tarixiga katta ta'sir ko'rsatgani bilan ham ahamiyatlidir. Amir Temur davlatini barpo etish, uning markazlashgan ma'muriy tizimini yo'lga qo'yish va xalqaro maydonda o'zining siyosiy nufuzini mustahkamlashda amalga oshirgan diplomatik aloqalari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, uning diplomatiyasi, tashqi siyosati va xorijiy davlatlar bilan o'rnatgan munosabatlari alohida ilmiy e'tibor talab qiladi. Amir Temurning diplomatik faoliyatini o'rganish zamonaviy tarixshunoslik va xalqaro munosabatlar uchun bir qator sabablarga ko'ra dolzarb hisoblanadi.

*Birinchi*dan, diplomatiya Temur davlatining mustaqilligi va tashqi siyosatidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlagan asosiy omillardan biri sifatida ahamiyatlidir. Sohibqiron turli mintaqaviy va xalqaro muammolarda ijobiy natijalarga erishish uchun maslahat va diplomatik aloqalarga e'tibor qaratgan, bu esa uning harbiy va siyosiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o'ynagan.

*Ikkinchi*dan, Amir Temurning diplomatiyasi va tashqi siyosati xalqaro ilm maydonida katta ahamiyatga ega. Uning diplomatik harakatlari, elchilar bilan aloqalari va xorijiy yozishmalar orqali turli xalqlar va davlatlar bilan munosabatlarni tartibga solishi faqat tarixiy ma'lumotlarga emas, balki davlat va diplomatik tajriba haqidagi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Bu jarayonlarni o'rganish orqali zamonaviy tarix ilmida davlatlararo munosabatlarni chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Uchinchidan, Amir Temur diplomatiyasi davlatning ichki va tashqi siyosatining o'zaro bog'liqligini o'rganishga imkoniyat yaratadi. Diplomatik faoliyat nafaqat xalqaro aloqalarni, balki ichki boshqaruv tizimini ham samarali tarzda yo'lga qo'yishda ahamiyatlidir. Temurning diplomatik harakatlari va siyosiy strategiyasi milliy va mintaqaviy davlatchilik an'analarini shakllantirishda muhim omil bo'lgani ta'kidlanadi.

Shu boisdan ham Amir Temur diplomatiyasiga oid manbalar tahlili zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu manbalar faqat tarixiy ma'lumotlarni emas, balki davlatchilik va diplomatik faoliyatning turli jihatlarini, diplomatik strategiya va aloqalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda manbalarni tahlil qilish orqali Amir Temurning tashqi siyosati, diplomatik uslubi, elchilar bilan aloqalari, qo'shni davlatlar va xalqaro hamjamiyatdagi nufuzi haqida keng va xolis ma'lumot olish mumkin.

Jahon tarix fani va badiiy adabiyotida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar nihoyatda serhajm va turlicha bo'lib, ular orqali Temur diplomatiyasining mazmun-mohiyatini anglash imkoni paydo bo'ladi. Bular orasida G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Fasih Havofiy, Abdurrazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro', Ibn Hajar al-Asqaloniy, Al-Maqriziy, Ibn Tag'riberdi, Ibn Qozi Shubha, Ibn al-Furot [1] kabi Sharq olim va tarixchilarining manbalari hamda I. Shiltberger, arxiyepiskop Ioann, Rui Gonsales de Klavixo, Lusen Keren, Jon Pol Ru, Beatris Forbes va Xilda Xukxem kabi xorijiy va yevropalik mualliflar asarlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu manbalar Amir Temurning tashqi siyosat, diplomatik aloqalar va xalqaro maydondagi faoliyati haqida turli nuqtai nazarlar bilan ma'lumot berib, uning diplomatik merosini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Ulardan dastlabkisi G'iyosuddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning "Ruznoma g'azavoti Hindiston" ("Hindistonga yurish kundaligi") [2] asaridir. U Amir Temurning 1398–1399-yillarda Hindistonga olib borgan yurishlari asosida 1399–1403-yillarda yozilgan. Kitob garchi mubolag'alarga boy bo'lsa ham ma'lumotlarining aniqligi bilan bu davr tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur davriga oid manbalardan biri Nizomiddin Shomiy (1409-yilda vafot etgan) qalamiga mansub "Zafarnoma" [3] asaridir. U Amir Temurning topshirishiga asosan 1402–1404-yillarda yozilgan. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan to 1404-yil yozga qadar kechgan tarixiy voqealarni soda va ravon tilda yozgan. Bu kitobda 1404–1405-yillardagi voqealar – Amir Temurning vafotiga qadar bo'lgan davr tarixi Hofizi Abro' tomonidan qo'shimcha ilova sifatida kiritilgan va u to'ldirilgan mazmun kasb etgan.

Amir Temur davriga oid yana bir mashhur manba Sharafiddin Ali Yazdiy (1454-yilda vafot etgan) qalamiga mansub "Zafarnoma" [4] hisoblanadi. Bu asar qahramonlik, yuksak optimistik ruhda yozilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning bu asarida Amir Temur tavallud topgan davrdan to Halil Sulton davrigacha yuz bergan tarixiy voqealar yoritilgan. Unda ahamiyatga molik ba'zi to'ldirish va qo'shimchalar mavjud. Bu asar fors hokimi temuriy zoda Ibrohim Sulton rahbarligi va topshirigi asosida 1425-yilda yozilgan. Ibrohim Sulton bu asarning haqqoniy va ishonchli chiqishida unga juda katta yordam bergan. Shuning uchun, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si manbalar orasida eng ishonarli va haqqoniyliги hisoblanadi.

Ibn Arabshoh-Shihobiddin Axmad ibn Muhammad ibn Ibrohim (1389–1450)ning "Ajoyib al-makdur fi axbori at-Taymur" ("Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari") [4] asari Amir Temur davriga oid muhim manbalardan biri hisoblanadi. 1401-yilda Amir

Temur Damashqni zabt etgan vaqtda Ibn Arabshoh 12 yoshda edi. U 1401-yilda asir sifatida Samarqandga keltirilgan, bu yerda 1408-yilgacha yashagan va o'z vataniga qaytgach, 1419-yilda Amir Temur davri tarixini yozib qoldirgan. Bu asar Amir Temurga nisbatan salbiy va dushmanlik munosabatida, manba va dalillarga qanchalik tayangan bo'lsa ham o'ziga xos subyektiv tasavvur va munosabatlari aks etganligi bilan ahamiyatli. Shunga qaramay, undagi ba'zi ma'lumotlar saltanat tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarixchi Amir Temurning irodasi mustahkam, qattiqqo'l va adolatli davlat rahbari sifatida, davlatni qonunlarga asoslangan holda boshqargani hamda o'sha davrda bo'lgan voqealar haqida qimmatli ma'lumotlar berib o'tgan.

Amir Temur davri tarixnavislaridan biri Fasix Axmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Havofiydir. Uning "Mujmali Fasixiy" ("Fasixiy to'plami") [4] nomli asari 1441–1442-yillarda yozilgan. Bunda tarixiy voqealar qisqa va lo'nda yilma-yil, davriy ketma-ketlikda berilgan va u ortiqcha mubolag'a, maqtov va subyektiv his-tuyg'ulardan holi asar hisoblanadi. U Amir Temur davridagi tarixiy voqealarga aniqliklar kiritilishida katta ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur davrida bo'lib o'tgan voqealarni yozgan tarixchilardan biri Kamoliddin Abdurazzoq ibn Mavlon Jaloliddin Ishoq as-Samarqandiy (1413–1483) bo'lib, "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi") [5] asari uning tomonidan 1470-yilda yozilgan. Unda Amir Temur, Shohrux Mirzo, Ulug'bek va boshqa temuriy hukmdorlarning ichki va tashqi siyosati, iqtisodiy, ma'naviy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Shahobiddin Abdullox ibn Lutfullox ibn Abdurashid al-Hofizi Hofizi Abro' (1431-yilda vafot etgan) ham Amir Temur davrining zabardast tarixnavislaridan biri hisoblanadi. Uning "Majma'ul Hofizi Abro'", "Zubdat ut-tavorix Boysung'uriy" ("Boysung'ur Mirzoning sarlanggan tarixi") kabi bir necha asarlari ma'lumdur. "Zubdat ut-tavorix Boysung'uriy" asari olimning rahbarligida 1426-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealar yozilgan. Hofizi Abro' o'z davri tarixiy voqealarini shohid sifatida tahlil etadi va uning ma'lumotlari ham milliy davlatchilik tariximizni o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Amir Temur shaxsi va davlat boshqaruvi haqidagi qimmatli ma'lumotlar arab manbalarida ham keng yoritilgan. Ulardan biri Ibn Hajar al-Asqaloniy nomi bilan mashhur al-Hofiz Ahmad ibn Ali 1372-yilda Qohirada tug'ilgan. U 21 yil davomida Misrda bosh qozi lavozimini egallagan. Uning "Inbo al-g'umr bi abno-il-umr" ("Zamon voqealari haqida g'o'r kishilarga dastak") asarida muallif yashagan davr, ya'ni 1372-yildan to vafotigacha – 1449-yilgacha bo'lgan voqealar hikoya qilinadi. Binobarin unda Amir Temurga oid ko'p xabarlar ham mavjud. Tarixnavis bu asarini suriyalik mashhur muarrix Ibn Kasirning (1300-1372) "Al-Bidoya va-n-Nihoya" ("Boshlanish (bidoya) va nixoya") nomi bilan yozilgan asarining davomi shaklida yaratgan. U hijriy 8-asr iborati bo'lgan bu muhim asar Qohira va Damashqda nashr etilgan.

Qomusiy tarixnavis olimi Taqiyyuddin Ahmad ibn Ali al-Maqriziy 1364-yilda Qohirada tug'ilgan va 1442-yilda vafot etgan. Muallifning "as-Suluk li-ma'rifat duval al-muluk" ("Ulug' podshohlar davlatlarini bilishda yetakchi qo'llanma") deb ataladigan, XV asr tarixi uchun muhim ahamiyatga molik to'rt qism – ikki ming yildan iborat yirik asari Misr va ayni chog'da musulmon mamlakatlarida bo'lgan voqealarni qamrab olgan. Asarda Misr sultonlari bilan Amir Temur orasidagi diplomatik maktublar almashinuvi haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Qohiradagi bu yirik asarning oxirgi – to'rtinchi qismi, ayniqsa, Amir Temurning sog' va butun davlatlari haqida muhim axborot beradi. Al-Maqrizning ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan "as-Suluk"dan boshqa ham qator asarlari bor.

Misr tarixchisi Nosiruddin Muhammad ibn Abdurrahim Ibn al-Furotning (1336–1404) qalamiga mansub asar “Tarix ad-duval va-l-muluk” (“Davlatlar va podshohlar tarixi”) deb atalgan bo’lsa-da, u qisqacha “Tarix Ibn al-Furot” nomi bilan mashhur. Bir necha jilddan iborat bo’lgan bu muhim asarning yettinchi, sakkizinchi, ayniqsa to’qqizinchi jildlari biz uchun juda qimmatlidir. Chunonchi, bu qismda Sohibqironning Damashqda bo’lgan payti va o’sha davrga oid voqealar juda mufassal holda bayon qilinadi. Ibn al-Furotning bu asari 1936–1942-yillarda Bayrutda nashr etilgan. Qohirada esa asarning ajoyib qo’lyozmasi saqlanadi.

Amir Temur davri davlatchilik tarixiga oid yana bir eng muhim asar “Temur tuzuklari”dir [5]. Asar nusxasining to’liqligining uchun uning yozilgan davri sanasi olimlar tomonidan aniqlanmagan bo’lsa-da, ammo unda tasvirlangan tarixiy jarayonlar, voqealarning aksariyati Amir Temur davrida yozilgan boshqa ma’lumotlar bilan mos keladi, unda mavjud ba’zi qimmatli dalil va voqealar boshqa manbalarda uchraydi.

“Tuzuklar” o’zining siyosiy–falsafiy, ma’naviy–axloqiy mazmunining boyligi bilan mashhur bo’lgan va turli davrlarda ko’plab tillarga tarjima qilingan, davlat boshqaruvida undagi g’oyalardan foydalanilgan. “Tuzuklar” Amir Temur davlatchilik tarixini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi va uning mazmun-mohiyatini alohida mavzularda ochib berish dolzarb masaladir.

“Ravzat us-safo” (“Musofoflik bog’i”) nomli asar muallifi mashhur tarixchi Mirxond (1433–1498) va uning nabirasi G’iyosuddin ibn Humomiddin Hondamirning (1475–1553) “Habib us-siyar fi axbori abrar va-l-bashar” (“Inson xabarlar va fazilatli do’stning tarixiy holoti”) [6] va shu kabi asarlari ham Amir Temur davri manbashunosligida alohida o’rin tutadi. Bu asar 1524-yilda yozila boshlangan bo’lib hamma qo’shimchalar kiritilishi natijasida u 1529-yilda oxiriga yetkazilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Davlatshoh Samarqandiy [7] (1435–1495), Zaxiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) [8] kabi ko’plab davlat arboblari, sayyoh tarixnavislarning asarlari yaratilgan bo’lib, ularni barchasiga batafsil to’xtalish imkoniyati bo’lmasa-da, tadqiqot jarayonida ulardan keng foydalanishga harakat qilindi.

Yevropada Amir Temur va Temuriylar sulolasi tarixini o’rganish uzoq tarixga ega bo’lib, bu yo’nalishda ko’plab tarixiy, ilmiy va badiiy manbalar yaratilgan.

Amir Temur davri tarixini o’rganishda ayniqsa Ispaniya elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning “Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura” [9] asari katta ahamiyat kasb etadi. Klavixo o’z davrining qudratli davlati sanalgan Ispaniyaning elchisi sifatida 1403–1406-yillarda Movarounnahrda kelgan. Klavixo o’z elchiligi davomida Movarounnahrda ko’rgan-bilganlari, unga ko’rsatilgan yuksak ehtirom va boshqa taassurotlari haqida ma’lumotlar qoldirgan. Uning “Qo’llanma”si Amir Temur davlaining kuch-qudrati, ichki va tashqi siyosati, rasmiy marosimlar, oilaviy munosabatlari, ilm-fan taraqqiyoti, urf-odatlar, me’morchilik va boshqa milliy an’analar haqida bizga ko’plab qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Klavixoning asari shuningdek, Amir Temurning tashqi siyosatini yoritishda eng muhim Yevropa manbalaridan biridir. Asarda Temurning tashqi siyosatining asosiy maqsadi – G’arb bilan ittifoq o’rnatib, Usmonli turklar kuchayishiga qarshi muvozanat yaratish ekani ko’rsatiladi. Klavixo Samarqandni xalqaro diplomatiya markazi sifatida tasvirlab, Temurning turli mamlakatlardan – Xitoy, Hindiston, Eron va Rumdan elchilarni qabul qilganini yozadi. Bu ma’lumotlar Temurning tashqi siyosati keng qamrovli, strategik va tinchlikni saqlashga yo’naltirilgan bo’lganini ko’rsatadi. Asar o’z davri uchun noyob bo’lib, Temur siyosatining Yevropa nigohidagi birlamchi guvohnomasidir.

Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi munosabatlarning ziddiyatli tomonga o'zgarishida Klavixo ko'proq turk sultonining aybi bor deb hisoblagan. Bundan tashqari Klavixo Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi aloqalarga ham to'xtalib, bir qancha muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

G'arb manbalari ichida Yoxannes Shiltbergerning esdaliklari Amir Temur faoliyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. U 1396-yil 28-sentyabrda Sigizmund boshchiligidagi salibchilar qo'shini safida turklarga qarshi Nikopol yaqinidagi jangda ishtirok etgan va Usmonlilar tomonidan asirga olingan. Keyinchalik, 1402-yilda Boyazid qo'shinlari bilan birga Anqara yaqinida Amir Temur qo'shinlariga qarshi jangda qatnashgan va bu safar Temur tomonidan asirga tushgan. Shundan so'ng, u Amir Temurning o'g'li Shohrux xizmatiga topshiriladi. Shiltberger taxminan 30 yil davomida turli xalqlar ichida yashab, o'zi ko'rgan va eshitgan voqealarni keyinchalik o'z asarida bayon etgan. Uning yozuvlarida [10] Amir Temurning Kichik Osiyo, Yaqin Sharq va Hindistonga qilgan yurishlari, xalqaro aloqalari va elchilik munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Shuningdek, Ioann de Galonifontebus (Arxiyepiskop Ioann) o'z asarida Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi, uning odillikka asoslangan siyosiy faoliyati va diniy munosabatlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Muallif Temurni faqat harbiy sarkarda sifatida emas, balki adolatni ustuvor qo'ygan davlat rahbari sifatida tasvirlaydi. U Temurning turli din va millat vakillariga nisbatan nisbatan bag'rikengligi, ayniqsa nasroniylarga qilgan munosabatini alohida ta'kidlaydi. Asarda Temurning elchilarni hurmat bilan qabul qilishi, mamlakatdagi tartib-intizom, iqtisodiy farovonlik va xalqning osoyishtaligi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Shu jihatdan, bu manba Temur davridagi diplomatiya, davlat boshqaruvi va diniy siyosatni o'rganishda muhim tarixiy guvohnoma sanaladi [11].

Amir Temur va uning yurishlari, diplomatik munosabatlari va tashqi siyosati haqida venger sharqshunosi Herman Vamberi ham bir qancha qimmatli ma'lumotlar bergan. H. Vamberi Amir Temurning tashqi siyosatini keng qamrovli va strategik deb baholaydi. Uning fikricha, Temurning asosiy maqsadi Markaziy Osiyoda siyosiy barqarorlikni ta'minlash va atrofdagi davlatlar o'rtasida kuch muvozanatini o'rnatish bo'lgan. Vamberi Temur yurishlarini bosqinchilik emas, balki davlat xavfsizligi va savdo yo'llarini muhofaza qilishga qaratilgan "mudofaa siyosati" sifatida talqin qiladi. Shuningdek, u Temurning Usmonlilar, Eron va Hindiston bilan munosabatlariga to'xtalib, 1402-yilgi Anqara g'alabasini Sharq va G'arb uchun katta ahamiyatga ega voqea sifatida baholaydi. Vamberi Temurni mahoratli diplomat va madaniy hamda iqtisodiy rivojni qo'llab-quvvatlagan davlat arbobi sifatida tavsiflaydi.

Tahlillar natijasida Amir Temur tarixiga tegishli manbalarda o'xshash ma'lumotlar uchragani bilan, ular bir-biridan davrda, sifatda, yozilish uslubi, dalil – ma'lumotlarning boyligi va boshqa jihatlari bilan farq qiladi.

V.V. Bartold, A.M. Belenitskiy, L.N. Gumilyov, B.D. Grekov, M.I. Ivanin, L. Keren, I.P. Petrushevskiy, X. Xukkem, A.Yu. Yakubovskiy [12] va boshqa Rossiya va Yevropa olimlari ham Amir Temur faoliyatiga doir ko'plab ilmiy asarlar yozganlar. Ular biz tadqiq etayotgan mavzuni yoritish uchun qimmatli manbalar bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek olimlaridan M.A. Abduraimov, D. Abidjanova, A. Ahmedov, B.A. Ahmedov, H. Bobobekov, O. Bo'riyev, A.H. Ziyo, A. Muhammadjonov, B. Mannonov, I.M. Mo'minov, U. Uvatov, I.I. Umnyakov, D.Yu. Yusupova, A. O'rinboyev, Sh. O'ljayeva, A. va boshqalarning tadqiqotlarida ham Amir Temur va temuriylar davriga doir muammolar, diplomatik munosabatlar talqini o'z ifodasini topgan [13].

Sho'ro davrida O'zbekistonda Amir Temur faoliyatiga doir bir necha nomzodlik ishi yozilgani ma'lum. Jumladan, M.A. Abduraimovning "Temur va To'xtamish" deb atalgan ishi 1948-yilda Leningradda (hozirgi Sankt- Peterburg) himoya qilindi [14]. U. Uvatovning "Ibn Arabshoh va uning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Temur" asari" va D.Yu. Yusupovanning "Mujmal-i Fasixi" O'rta Osiyo va O'rta Sharq tarixi va madaniyat tarixiga oid manba sifatida" mavzuidagi ishlari ham sho'ro davrida Toshkentda (1974-yil) himoya qilingan.

Keyingi yillarda Amir Temur davri tarixini o'rganishga doir manbashunoslik yo'nalishida bir necha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi⁶. Lekin bu ishlarda Sohibqironning diplomatiyasi va xalqaro munosabatlari siyosatini keng yoritish asosiy maqsad qilib olingan emas.

Sovet davrida aksariyat hollarda Amir Temur faoliyati salbiy jihatdan talqin etilganiga qaramay xorijiy sharq va g'arbda bu mavzuga oid haqli, obyektiv tadqiqotlar olib borildi¹⁸. Masalan, Fransiyada chop etilgan "La Timouride" jurnalida L. Keren Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid qator ilmiy ishlar muntazam ravishda chop qilib kelgan [15]. Jumladan, Lusen Keren²¹ ko'plab tadqiqotlarida Amir Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatda adolat va qonun ustuvorlik kutganligi, chuqur o'ylangan pragmatik tashqi siyosat olib borganligi" [16] manbalardagi ma'lumotlar va tarixiy faktlar asosida ochib bergan.

Fransuz temurshunosi Jan-Pol Runing Amir Temur shaxsiyati va faoliyatiga bag'ishlangan "Tamerlan" [17] nomli yirik tadqiqoti alohida e'tiborga loyiqdir. Muallif ushbu asarida Chingizxon va uning avlodlari tarixi, Sohibqironning hokimiyatga kelishi, davlat tuzish jarayoni, shuningdek, Eron, Oltin O'rda va musulmon davlatlari bilan bo'lgan munosabatlarni keng qamrovda yoritishga harakat qilgan [18]. Asarda Amir Temurning o'z davri jamiyatida tutgan o'rni, diniy va madaniy hayot, davlat hamda jamiyat o'rtasidagi munosabatlar umumiy tarzda tahlil etilgan.

Tadqiqotchilar orasida Beatris Forbes Manningning Temuriylar davlati boshqaruvini o'rganishga qo'shgan hissasini ayrim tarzda ta'kidlab o'tish lozim [19]. U Amir Temur hokimiyatga kelgunga qadar Chig'atoy ulusida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va axloqiy o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tgan hamda Amir Temur davlatining ma'muriy boshqaruviga doir ayrim fikr va mulohazalarni bildirgan.

Shu yo'nalishda G'arbda salmoqli izlanishlar olib borgan olimlardan yana biri – Xilda Xukxemdir [20]. U Amir Temur o'z yurtida davlatchilik va madaniyat an'analari davomchisi bo'lganligini, X–XI asrlarda tabobat, matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, tarix, arab va fors tili, adabiyot bo'yicha benazir asarlar yaratgan buyuk allomalar vatanidan yetishib chiqqanligi, mazkur allomalarning yirik asarlari bir necha yuz yillar davomida Yevropadagi Uyg'onish davriga katta ta'sir ko'rsatib, unga poydevor bo'lib xizmat qilinganligini [21] haqqoniy ravishda aytib o'tgan. Shuningdek, ushbu asar Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini xolisona yoritishga harakat qilgan bo'lib, asosan uning tashqi siyosati, harbiy faoliyati va jahon tarixi sahnasida tutgan o'rni haqida umumiy ma'lumotlar bergan.

Umuman olganda, Amir Temur davlati o'zbek davlatchiligi tarixining eng rivojlangan bosqichini tashkil etdi. Saltanatda barcha sohalarda tub burilishlar, yuksalishlar kuzatilgan. Taraqqiyot uchun xizmat qilgan Amir Temur faoliyati bilan bog'liq tarixiy qadriyatlar allaqachon umuminsoniy qadriyat darajasiga yetib ulgurgan. Amir Temur davlatchiligida xalq va davlat manfaati, inson omili markaziy o'rinni egallagani sababli, u davrda shakllangan siyosiy an'ana va udumlarning ijobiy jihatlaridan bugungi kunda ham yurtimizda olib borilayotgan ko'p vektorli va pragmatik tashqi siyosat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur tashqi siyosati bilan bog'liq mavzularni chuqur va tizimli tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni nisbatan kam bo'lgani sababli, ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarga hozirgi kunda alohida ehtiyoj sezilmoqda. Shu nuqtai nazardan, bizning tadqiqotimiz mazkur bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan bo'lib, Amir Temurning tashqi siyosat faoliyatini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish orqali mavjud ilmiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Amir Temurning dunyodagi eng qudratli va katta saltanatlardan birini barpo etganligi, harbiy san'ati, davlatini qanday asoslarga tayanib boshqarganini anglab yetish o'sha davrlar tadqiqotchilar hamda siyosatchilarning, arboblarning diqqat-e'tiborini tortib kelgan.

Amir Temur tashqi siyosati va diplomatiyasini o'rganish, shuningdek, uning tashqi siyosat faoliyati va diplomatik aloqalariga oid masalalarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar tarixiy manbalarni kengaytirishga va Amir Temurning diplomatik harakatlari, xalqaro aloqalari hamda tashqi siyosat strategiyasini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi. Shu orqali, mavjud ilmiy bo'shliqlarni qisman to'ldirish va ushbu sohadagi bilimlarni boyitish imkoni yaratiladi.

Shuningdek, Amir Temurning tashqi siyosat yo'nalishlari, uning o'ziga xos xususiyatlari, diplomatik yozishmalari va ularning davlat rivojidagi ahamiyatini tadqiq etish, barcha bo'lim va boblar bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish ko'lamini kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гиясиддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. Пер. с персидского, предис. и примеч. А. А. Семёнова. – М., 1958; Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан Ю. Ҳакимжонов таржимаси. Нашрга тайёрловчи А. Ўринбоев – Т., 1996; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Таржимон Муҳаммад Али Бухорий. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Аҳмад, Хайдарбек Бобобеков – Т., 1997; Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари. Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. 1 жилд. – Т., 1992; 2 жилд – Т., 1992; Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. Пер., предисл., примеч. и указатели Д.Ю. Юсуповой. – Т., 1980; Ўринбоев А. Абдурраззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси. – Т., 1960; Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Форс тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев – Т., 1969; Асар 2007-2008 йилларда 2 жилдда қайта нашр этилди; Ҳофизи Абру. Низомиддин Шомийнинг «Зафарномаи Шомий» асарига илова (Шомийнинг «Зафарнома» асари охирида. Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи О. Бўриев). – Т., 1996. – Б. 380-404; Ф. Бруна // Отв. ред. Б. Ахмедов – Т., 1997. – С.237; Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. Француз тилидан У.Жўраев, Б.Эрматов таржимаси. Т., 2007; Шарифхон Бидлиси. Шараф-наме. Пер. с персидского, предисл. и примеч. Е. И. Васильевой 84-99; –С, II Т. 1976. М.

2. معرفة دول – السلوك فى ; "كتاب. قاهرة، ٣٧٩١ المقرزى. "أبناء الغمرة با بناء العمر". ابن حجر الاصفلا نى . ٣٧٩١ - قاهرة، "كتاب السلوك فى معرفة دول الملوك". المقرزى؛ ٣٧٩١ - قاهرة، الملوك"

3. النجوم الظاهرة فى . ٣٧٩١ - قاهرة، "كتاب السلوك فى معرفة دول الملوك". المقرزى . قاهرة، ٣٧٩١. ملوك مصر والقاهرة

4. بيروت. تاريخ ابن الفرت. ٣٧٩٩ ابن الفرات. دمشق. تاريخ ابن قاضى شهية. ابن قاضى شهية

5. Фиёс ад-Дин Али. Дневник похода Тимура в Индию / Пер. с перс., предисл. и примеч. А.А. Семенова. – М.: Наука, 1958. – 205 с.

6. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгириб Юнусхон Ҳақимхонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 527 б.
7. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома (Мовароуннаҳр воқеалари 1360–1370) / Масъул муҳаррир, сўзбоши муаллифлари ва таржимаси: А. Ўринов, Б. Муқтаров, О. Буриев. – Тошкент: Камалак, 1994. – 288 б.;
8. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Сўзбоши, таҳлил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Ахмад, Ҳайдарбек Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
9. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. 2-жилдли. – Тошкент: Меҳнат, 1992.
10. Фасих Ахмад ибн Жалолiddин Муҳаммад ал-Ҳавофий. Мужмали Фасихий (Фасихов свод) / Пер. с перс., комментарии и указатели Д.Ю. Юсуповой. – Тошкент: Фан, 1980. – 346 с.
11. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва маҷмаи баҳрайн / Форс-тоҷик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳ ва луғатлар Д. Ўриновбоева. – Тошкент: Фан, 1969. Т. 2. 1-қисм. – 463 б.
12. Темур тузуклари / Форсчадан Алиқул Соғуний ва Ҳабибулло Қароматов таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар, умумий таҳрир А.Бобожонов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – 382 б.
13. Ҳондамир. Ҳабиб ус-сияр. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти қўлёмалар жамғармаси. Инв. № 55/1; Ҳондамир. Ҳабиб ус-сияр. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти қўлёмалар фонди. Инв. № 801 ва бошқалар.
14. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар тўғрисида / Форс тилидан Б. Ахмедов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 86 б.
15. Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.
16. Руй Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Пер. со старосп. И.С. Марковской. – М.: Наука, 1990. – 192 с.
17. Шильтбергер И. Путешествие Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке с 1394 г. по 1427 г. / Пер. с нем., предисл. и примеч. Ф.Бруна // Отв.ред Б.Ахмедов. – Т., 1997. – С.237.
18. Амир Темур жахон тарихида / масъул муҳаррир Х. Кароматов; муаллифлар жамоаси: С. Саидқосимов (рахбар), А. Ахмедов, Б. Ахмедов ва бошқ. – 2-нашр, тўлдирилган ва қайта ишланган. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 128.
19. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1990. – Б.30-57.
20. Бартольд В.В. (Тимур и Тимуриды). Раздел VI «История Туркестана». Соч., Т.2, ч.1. – М., 1963. – С.731-746.; Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. "Средневековый город Средней Азии". – М.: Наука, 1973; Гумилев Л.Н. Древняя Русь и Великая степь». – Астрель, АСТ, 2004.; Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Олтин Ўрданинг қулаши. – Т.: Ўзданашир, 1956. – Б. 223-366; Иванин М.И. О военном искусстве и завоеваниях монголо-татар и средне-азиатских народов при Чингисхане и Тамерлане. С.Петербург, 1875. – С.252; Люсьен Кэрэн. Амир Темур салтанати. – Т.: "Ўзбекистон" 1999. – Б. 6-222; Петрушевский И.П. Иран под властью Тимура и Тимуридов // История Ирана. – М.: "Наука", 1977. – С. 160- 164.; Хильда Хукхэм. Властитель семи созвездий. – Т., 1995, – С.314; Якубовский А.Ю. Тимур. //Тамерлан: Эпоха, личность, деяния. – М., 1992.

21. Абдураимов М.А. Темур ва Тўхтамиш. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 6- 70; Абиджанова Д. Мавераннахр эпоха правления Амира Тимура в англоязычной историографии 60-90-х годов XX в. /Автореф. дис.канд.ист.наук, – Т., 2000. – Б. 27; Ахмедов Б. Сохибқирон Темур (ўзбек, рус ва инглиз тилларида). – Т., 1996.; Ахмедов Б. Амир Темур. – Т.: А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. 1995. – Б.637; Бобобеков Ҳ., Қуранбеков А., Бобоев Ҳ., Бобокалонов З. Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси. – Т.: Фан, 2004. – Б.270; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 8-133.; А. Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент, 2001. – Б. 256.; Маннонов Б. Амир Темур дипломатияси. // “Шарқшунослик”, 1996, – Б. 10-37; Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Т.: Фан, 1968. – Б. 14-56.; Уватов У. Сохибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Т.: “Шарқ” НМК, 1997. – Б. 7-149.; Умняков И.И. Внешнеполитические связи Самарканда с государствами Западной Европы // История Самарканда. Т.1. –Т.: “Фан”, 1969. – С. 173-195.; Юсупова Д. Мужмал-и Фасихи Ўрта Осиё ва Ўрта Шарқ тарихи ва маданий тарихига оид манба сифатида. /Автореф.дис...кан.ист.наук. – Т., 1974.; Улжаева Ш. Историография эпохи Амира Тимура и тимуридов в 50-60-х годов XX века. Автореф.дис...канд.ист.наук. – Т., 1999, – С. 27.

22. Ўлжаева Ш. Историография эпохи Амира Тимура и тимуридов в 50-60-х годах XX века. АКД. – Т., 1999; Абиджанова Д. Мавераннахр эпохи правления Амира Тимура в англоязычной историографии 60-90-х годов XX века. АКД. – Т., 2000; Усманов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XX аср). НДА. –Т., 2004. 7 Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Т.: “Қомуслар бош таҳририяти”, 1996. – Б.13-49. 8 Бартольд В.В. Сочинения, Т II. Ч 1. – М., 1963. – С.159.

23. Beaupertuis – Bressand F. L’art des jardins à son apogée ou splendeur des jardins de Samarkand // La Timouride. – Paris, 1990. – № 4. – P. 7–8.

24. Керен Л. Амир Темур салтанати. – Б. 169–170.

25. Жан-Пол Ру. Тамерлан / Пер. с фр. Е.А. Соколова. Послесл. В.Л. Егоров. – М.: Молодая гвардия, 2004.

26. O’sha joyda. – С. 20–279.

27. Manning Beatrice Forbes. Administration and the delegation of Authority in Temur’s Dominions // Central Asiatic Journal. 1976. – № XX. – Pp. 19–30; Les Chagatay before and after Timur. – The Cambridge University Press. 1983. – № XXVII. – Pp. 79–100.

28. Hookham H. Tamerlane the conqueror. – London, 1962; Хукхэм Х. Властитель семи созвездий / Пер. с англ. Г. Хидоятова. – Тошкент: Адолат, 1995. – 320 с.

29. Хукхэм Х. Властитель семи созвездий / Пер. с англ. Г. Хидоятова. – Тошкент: Адолат, 1995. – С. 17.

30. Абдураимов М.А. Темур ва Тўхтамиш. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.

31. Амир Темур жахон тарихида / масъул муҳаррир Х. Кароматов; муаллифлар жамоаси: С. Саидқосимов (рахбар), А. Ахмедов, Б. Ахмедов ва бошқ. – 2-нашр, тўлдирилган ва қайта ишланган. – Тошкент: Шарқ, 2001. Бартольд В.В. (Тимур и Тимуриды). Раздел VI «История Туркестана». Соч., Т.2, ч.1. – М., 1963. –

32. Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.

33. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар тўғрисида / Форс тилидан Б. Ахмедов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967.

34. Жан-Пол Ру. Тамерлан / Пер. с фр. Е.А. Соколова. Послесл. В.Л. Егоров. – М.: Молодая гвардия, 2004.

35. Руй Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Пер. со старосп. И.С. Марковской. – М.: Наука, 1990.

36. Темур тузуклари / Форсчадан Аликул Соғуний ва Ҳабибулло Қароматов таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар, умумий таҳрир А.Бобожонов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996.